

“O‘ZBEKINVEST” EISK” AJ JISMONIY SHAXSLARNING UY-JOYINI SUG‘URTA QILISH BO‘YICHA OMMAVIY OFERTASI

Ushbu Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – “Oferta”) “O‘zbekinvest” EISK AJ (keyingi o‘rinlarda – Sug‘urtalovchi) tomonidan noaniq jismoniy shaxslar doirasiga (keyingi o‘rinlarda Sug‘urta qildiruvchi) quyidagi shartlarda, Sug‘urtalovchining axborot tizimlari orqali jismoniy shaxslarning uy-joyini sug‘urta qilish Shartnomasini (keyingi o‘rinlarda – sug‘urta Shartnomasi) tuzish to‘g‘risida qilingan taklifidir. Shartnomaning Tomonlari Sug‘urtalovchi va Sug‘urta qildiruvchidir.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va belgilangan sug‘urta mukofotini to‘lash uning shartlarini akseptlash va sug‘urta Shartnomasini tuzish uchun Sug‘urta qildiruvchining roziligi hisoblanadi. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta mukofoti to‘langanligi tasdiqlangandan so‘ng, unga elektron pochta orqali sug‘urta polisining elektron hujjati yuboriladi va sug‘urta Shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

Ushbu Ofertaning shartlariga muvofiq, qurilish yakunlanib, foydalanishga qabul qilingan va kadastr hujjatiga ega bo‘lgan, qonun hujjatlariga binoan yashash uchun yaroqsiz deb topilmagan, poydevori va suv o‘tkazmaydigan tomi, oyna va derazalari mavjud, mustahkam turar joy va mazkur joyning konstruktiv ajralmas qismi bo‘lgan qurilmalar sug‘urtaga olinadi. Sug‘urtalangan uy-joy sug‘urta polisida ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasiga muvofiq ushbu Oferta shartlarini so‘zsiz qabul qilish (akseptlash) Oferta shartlarini Qabul qilish deb hisoblanadi, va bu bilan quyidagilarga rozilik bildiriladi:

- ushbu Oferta shartlari, shu jumladan unda ko‘rsatilgan sug‘urta qilish shartlari;
- arizani to‘ldirishda ko‘rsatilgan shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish uchun, shu jumladan yig‘ish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, egasizlantirish, blokirovka qilish, yo‘q qilish (yo‘q qilish to‘g‘risida xabar bermasdan), avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan usulda ishlov berish orqali 5 yil muddatga sug‘urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida, shuningdek sug‘urta Shartnomasini bajarish maqsadida, ichki ish yuritishni uchinchi shaxslarga topshirish.

Ushbu Oferta shartlarida Sug‘urtalovchi bilan sug‘urta Shartnomasini tuzgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar, O‘zbekiston fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashaydigan chet el fuqarolari Sug‘urta qildiruvchi bo‘lishi mumkin.

Sug‘urta qildiruvchi o‘z huquqi va muomala layoqatini tasdiqlaydi, shuningdek Sug‘urtalovchining Internet-resursi orqali sug‘urta Shartnomasini tuzish natijasida o‘ziga yuklatilgan majburiyatlar uchun javobgarlikni anglaydi.

Sug‘urtalovchining Internet-resursida sug‘urta Shartnomasini onlayn rejimida tuzish uchun Sug‘urta qildiruvchi elektron pochta manzili va mobil telefon raqamiga ega bo‘lishi shart.

Sug‘urtalash uchun ariza bo‘lib Sug‘urta qildiruvchi tomonidan Sug‘urtalovchining Internet-resursida sug‘urta Shartnomasini tuzish uchun zarur va ahamiyatli bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni kiritish hisoblanadi.

Sug‘urtalovchi O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 62-moddasi talablariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchi va sug‘urta Shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma‘lumotlari xavfsizligini va oshkor qilinmasligini ta‘minlash majburiyatini oladi.

Keyingi o‘rinlarda matnda keltirilgan “Oferta”, “Sug‘urta shartnomasi” va “Sug‘urta polisi” havolalari ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma‘noga ega.

1-BO‘LIM. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Umumiy tushunchalar:

1.1.1. **Sug‘urtalovchi** – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2020 yil 11 dekabrda SF 00006-sonli Litsenziyasiga asosan o‘z sug‘urta faoliyatini olib boruvchi “O‘zbekinvest” EISK” AJ.

1.1.2. **Sug‘urta qildiruvchi** – qonunchilik yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatga ko‘ra uy-joy saqlanishidan manfaatdor, ushbu Ofertaga muvofiq sug‘urta shartnomasini tuzgan jismoniy shaxs.

1.1.3. **Sug'urta puli (Sug'urta majburiyati)** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashi bo'yicha majburiyatining chegarasini bildiruvchi pul miqdori.

1.1.4. **Sug'urta polisi (Polis)** – mazkur Ofertani o'z ichiga olgan sug'urta shartnomasi.

1.1.5. **Sug'urta tovon** – sug'urta hodisasi yuz berganda zararni qoplash uchun Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta pulidan oshmagan miqdorda to'lab beriladigan pul mablag'i.

1.1.6. **Shartsiz franshiza** – zararning to'lanmaydigan qismi bo'lib, sug'urta pulining ma'lum miqdorida o'rnatiladi. Zarar miqdori shartsiz franshiza chegarasidan ortiq bo'lgan taqdirda, shartsiz franshiza summasi zarar summasidan chegirib qolinadi.

1.1.7. **Sug'urta muddati** – Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi sharti bilan ushbu sug'urta amal qiladigan vaqt davri.

1.1.8. **Sug'urta mukofoti** – sug'urta uchun Sug'urtalovchiga to'lanishi shart bo'lgan to'lov.

1.1.9. **Sug'urtalangan uy-joy** – qurilish yakunlanib, foydalanishga qabul qilingan va kadastr hujjatiga ega bo'lgan, qonun hujjatlariga binoan yashash uchun yaroqsiz deb topilmagan, poydevori va suv o'tkazmaydigan tomi, oyna va derazalari mavjud, mustahkam turar joy va mazkur joyning konstruktiv ajralmas qismi bo'lgan qurilmalar. Agar uy-joy bir nechta binodan iborat bo'lsa, barcha binolar polisda ko'rsatilishi shart, aks holda alohida qurilgan binolar sug'urtalangan uy-joy hisoblanmaydi.

1.1.10. **Uchinchi shaxslar** – Sug'urta qildiruvchining yaqin qarindoshlari (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, turmush o'rtog'i, farzandlari) bo'lmagan va (yoki) sug'urtalangan uy-joy manzilida ro'yxatda turmaydigan shaxslar.

1.2. Sug'urta shartnomasini tuzish va kuchga kirish tartibi:

1.2.1. Ushbu Oferta Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sotuv va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjatdir;

1.2.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda taqdim etgan ma'lumotlari asosida shakllantiriladi;

1.2.3. Sug'urta qildiruvchi elektron arizaning talab qilingan maydonlarini mustaqil ravishda va arizada ko'rsatilgan hujjatlarning asliga muvofiq ravishda to'ldiradi;

1.2.4. Sug'urta qildiruvchi arizadagi hujjatlarning asliga to'g'ri va bir xilligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shuningdek, arizadagi hujjatlar ularning asl nusxalariga to'g'ri kelmasa, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortishga haqli ekanligiga rozilik bildiradi;

1.2.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma'lumotlari avtomatik ravishda Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ga kiritiladi;

1.2.6. Ofertada taklif qilingan sug'urta shartlari bilan rozi bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligini tasdiqlaydi va sug'urta Shartnomasini tuzish to'g'risidagi Arizani (keyingi o'rinlarda Ariza) onlayn rejimda Sug'urtalovchining axborot tizimlaridan foydalanish orqali to'ldirishga o'tadi;

1.2.7. Arizani to'ldirishda sug'urta hodisasining sodir bo'lish ehtimoli va uning sodir bo'lishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun Sug'urtalovchi uchun ahamiyatli va zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asl nusxalariga qat'iy muvofiq ravishda ko'rsatilishi shart;

1.2.8. Ariza to'ldirilganidan so'ng, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan avtomatik ravishda "Sug'urta mukofotini to'lash va sug'urta polisini rasmiylashtirish" tugmachasiga ochiladi;

1.2.9. Sug'urta shartnomasining tomonlari Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta polisi olinganligi sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ni tegishli tarzda imzolash hisoblanishini tasdiqlaydilar;

1.2.10. Ushbu Ofertani qabul qilish va sug'urta shartnomasini tuzish sanasi Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan Sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'laganligi tasdiqlangan sana hisoblanadi;

1.2.11. Sug'urta muddati va Sug'urtalovchining sug'urta majburiyatlari sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchiga berilgan kundan boshlab 5 kun o'tib kuchga kiradi va to'langan davr uchun amal qiladi.

1.3. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash tartibi:

1.3.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash Sug'urtalovchi

tomonidan qo‘llaniladigan axborot tizimlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi (onlayn);

1.3.2. To‘lov tizimining himoyalangan kanaliga keyinchalik yo‘naltirish uchun arizani qabul qilishni tasdiqlash Sug‘urta qildiruvchi tomonidan arizani to‘ldirishda ko‘rsatilgan mobil telefon raqamiga Sug‘urtalovchi tomonidan SMS-xabar yuborilishi orqali amalga oshiriladi;

1.3.3. Tasdiqlash kodi bo‘lgan SMS-xabarni olganidan so‘ng, Sug‘urta qildiruvchi elektron to‘lov tizimini tanlashi kerak, shundan so‘ng u tanlangan to‘lov tizimining veb-saytiga sug‘urta mukofotining hisoblangan miqdorini Sug‘urtalovchining hisob raqamiga o‘tkazish uchun avtomatik ravishda yo‘naltiriladi;

1.3.4. Sug‘urta polisi bo‘yicha sug‘urta mukofotining to‘langanligi to‘g‘risidagi tasdiqni olgandan so‘ng, Sug‘urtalovchining axborot tizimi avtomatik ravishda Sug‘urta polisini elektron shaklda rasmiylashtiradi, uni Sug‘urta qildiruvchining elektron pochta manziliga yuboradi, keyinchalik Sug‘urta qildiruvchini Sug‘urta polisi seriyasi va raqami to‘g‘risidagi va Sug‘urta polisi elektron tarzda yuborilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan SMS-xabarni yuborish orqali xabardor qiladi;

1.3.5. Sug‘urtalovchi to‘lov Provdayerining harakatlari/harakatsizligi, shuningdek Sug‘urta qildiruvchining elektron to‘lov tizimi va Internet orqali to‘lov bilan bog‘liq har qanday zarar va xavflari uchun javobgar emas.

1.3.6. Bank kartasi orqali sug‘urta mukofotini to‘lash to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi - karta egasi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Sug‘urta qildiruvchi to‘lovni amalga oshirish uchun bank kartasini boshqa shaxsga topshirgan taqdirda, Sug‘urta qildiruvchi unga bog‘liq barcha xavflarni o‘z zimmasiga oladi va bu holda sug‘urta mukofotini to‘lash Sug‘urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilganligiga rozilik bildiradi.

1.3.7. Sug‘urtalovchining axborot tizimidagi “Sug‘urta mukofotini to‘lash va sug‘urta polisini rasmiylashtirish” tugmachasini bosish bilan, shuningdek shakllangan sug‘urta mukofotini to‘lash orqali Oferta yuborilgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasiga muvofiq ushbu Oferta shartlariga rozilik bildiradi.

1.4. Sug‘urta qildiruvchining tashabbusi bilan sug‘urta shartnomasini (sug‘urta polisini) muddatidan oldin bekor qilish. Sug‘urta mukofotini qaytarish:

1.4.1. Sug‘urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan so‘ng sug‘urta hodisasining sodir bo‘lish ehtimoli yo‘qolgan bo‘lsa va sug‘urta hodidasidan boshqa holatlar tufayli sug‘urta xavfining mavjudligi to‘xtatilgan bo‘lsa, u tuzilgan muddatdan oldin bekor qilinadi.

1.4.2. 1.4.1-bandda ko‘rsatilgan holatlar tufayli sug‘urta shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Sug‘urtalovchi sug‘urta mukofotining bir qismini sug‘urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

1.4.3. Sug‘urta qildiruvchi, agar rad etish paytigacha ushbu Ofertaning 1.4.1-bandida ko‘rsatilgan holatlar tufayli sug‘urta hodisasi ehtimoli yo‘qolmasa, sug‘urta Shartnomasini bajarishni har qanday vaqtda rad etishga haqlidir. Shu bilan birga, Sug‘urtalovchiga to‘langan sug‘urta mukofoti qaytarilmaydi.

1.4.4. Sug‘urta qildiruvchining tashabbusi bilan sug‘urta shartnomasini (sug‘urta polisini) muddatidan oldin bekor qilish Sug‘urtalovchiga bekor qilish to‘g‘risidagi yozma arizani yuborish orqali, keyinchalik tomonlar sug‘urta shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida Kelishuvni imzolagan holda amalga oshiriladi.

1.4.5. Sug‘urtalovchining tashabbusi bilan sug‘urta shartnomasini (sug‘urta polisini) muddatidan oldin bekor qilish faqat quyidagi hollarda bir tomonlama amalga oshiriladi:

a) Sug‘urta qildiruvchi yoki Sug‘urtalangan shaxs tomonidan rejalashtirilgan davolanishni amalga oshirish, tibbiyot muassasasiga, Sug‘urtalovchiga noto‘g‘ri ma‘lumotlar berish va haqiqatga mos kelmaydigan hujjatlarni taqdim etish orqali qasddan suiiste‘mol qilish. Bunday holda, Sug‘urtalovchi ushbu holatlar tasdiqlangan taqdirda, Sug‘urta qildiruvchiga/Sug‘urtalangan shaxsga yozma ravishda xabar berish orqali sug‘urta Shartnomasini bir tomonlama bekor qilishga haqlidir;

b) qonun hujjatlarida va sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan va ruhsat etilgan hollarda.

SUG‘URTALOVCHINING REKVIZITLARI: To‘liq nomlanishi:

“O‘zbekinvest” Eksport-import sug‘urtasi kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati.

Pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100097, Toshkent shahri, Cho‘pon ota ko‘chasi, 6 uy.
Elektron pochta manzili (rasmiy Internet-resurs / elektron pochta): www.uzbekinvest.uz
office@uzbekinvest.uz Davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risida ma‘lumot:

Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 1 iyulda ro‘yxatdan o‘tkazildi, reyestr raqami 386.

Litsenziya to‘g‘risida ma‘lumot:

Litsenziya: SF №00006 seriyali, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2020 yil 11 dekabrda berilgan.

2-BO‘LIM. SUG‘URTA HODISASI

1.1. Agar ushbu Ofertaning 3-bo‘limi bilan istisno qilinmagan bo‘lsa, sug‘urtalangan uy-joyga kuchli shamol (bo‘ron, dovul), jala, sel, ko‘p qor yog‘ishi, do‘l, yashin urishi, suv bosishi, ko‘chki, zilzila, yong‘in, tabiiy gazning portlashi, uchinchi shaxslarning qonunga zid harakatlari, shuningdek uy-joyga uning yoki qo‘shni xonadonlarning santexnika, isitish yoki kanalizatsiya tizimlari ishdan chiqishi (nosozliklari) natijasida zarar yetishi, vakolatli tashkilot tomonidan quyidagi belgilar (ko‘rsatkichlar) hujjat bilan tasdiqlanganligi sharti bilan, sug‘urta hodisasi bo‘lib hisoblanadi:

a) kuchli shamol (bo‘ron, dovul) – 15,0 m/s va undan katta tezlikdagi shamol;

b) jala, ko‘p qor yog‘ishi – 12 soat davomida 15 mm va undan ko‘p yoqqan yog‘ingarchilik;

v) do‘l – diametri 10 mm va undan katta bo‘lgan do‘l;

g) zilzila – Rixter shkalasi bo‘yicha 4,5 ball va undan yuqori kuchga ega bo‘lgan zilzila.

1.2. Agar 1.1-bandda ko‘rsatilmagan qaltisliklar natijasida uy-joyga zarar yetsa, bunday holat sug‘urta hodisasi deb hisoblanmaydi va sug‘urta tovonini to‘lash majburiyati yuzaga kelmaydi.

3-BO‘LIM. UMUMIY ISTISNOLAR

3.1. Ushbu Ofertaga ko‘ra quyidagi voqealar sug‘urta hodisasi hisoblanmaydi:

a) qasddan yoki beparvolik natijasida qilingan har qanday harakat yoki harakatsizlik oqibatida sodir bo‘lgan hodisa;

b) sug‘urtalangan uy-joyda oson yonuvchan moddalar, buyumlarni saqlash va yong‘in xavfsizligi qoidalarining buzilishi;

v) sug‘urtalangan uy-joyga zararkunandalar, termitlar yoki boshqa hasharotlar tomonidan zarar yetishi, tabiiy eskirishi yoki yomonlashishi, zaharlanish, zanglash, quruq yoki ho‘l tutashi, mog‘orlash, havo namligi, zaharlangan tutun yoki ekstremal tabiiy haroratdan yetkazilgan zarar, buzilish yoki shikastlanish;

g) sug‘urtalangan uy-joyning qurilish, montaj, pardozlash va/yoki bo‘yash ishlarida yo‘l qo‘yilgan xato, kamchilik va/yoki yashirin nuqsonlar va shunday nuqsonlar natijasida kelib chiqqan zararlar.

d) uy-joyga ishlov berish, noqonuniy qayta loyihalash, uni yangilash yoki ta‘mirlash ishlari natijasida uning zararlanishi, buzilishi yoki shikastlanishi;

e) quritish, bug‘lanish, yorug‘likka ta‘sirchanlik natijasida sug‘urtalangan uy-joyning yoki uning alohida qismlarining rangi o‘chishi (xiralashishi), sifati, teksturasi va/yoki strukturasi o‘zgarishi;

j) sug‘urta qilishdan oldin mavjud bo‘lgan zarar, shikast, yoriqlar;

z) uy-joyning tomi, derazalari, devorlaridan chakki o‘tishi;

i) sug‘urtalangan uy-joyga qo‘shimcha ravishda qurilgan molxonona, qo‘yxona, tovuqxona, ombor, tandir, alohida xojatxonaga zarar yetishi;

y) agar mulkiy sug‘urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo‘yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo‘q qilib tashlanishi oqibatida ko‘rilgan zarar uchun sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod qilinadi;

k) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa holatlar natijasida sodir bo‘lgan hodisalar.

4-BO‘LIM. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchi tomonidan axborot tizimida ommaviy shaklda taqdim

etilgan ma'lumotlar uchun javobgar emas.

4.2. Sug'urtalovchi o'z vakolatiga kirmaydigan hodisa va holatlar natijasida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar va zararlar, shuningdek uchinchi shaxslarning harakatlari/harakatsizligi uchun javobgar emas, ya'ni:

- Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning ishonchsizligi, yetarli emasligi va o'z vaqtida taqdim etilmaganligi yoki Sug'urta qildiruvchi tomonidan ushbu Ofertaning shartlari yoki hujjatlarga bo'lgan talablarning buzilganligi oqibatida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lsa;

- hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun (ulardagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligi);

- aloqa liniyalarining uzilishi, Sug'urta qildiruvchi uskunasi uchun ishlamay qolishi sababli Sug'urtalovchi tomonidan rasmiylashtirishning iloji yo'qligi uchun.

4.3. Tomonlar ushbu Oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari va/yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun ushbu Oferta va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tomonidan belgilangan tartib va shartlarda javobgar bo'lishadi.

4.4. Tomonlar yengib bo'lmas kuch holatlari (fors-major) yuzaga kelgan taqdirda ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

4.5. Sud tomonidan ushbu Ofertaning biror qoidasi haqiqiy emas deb topilishi qolgan qoidalarning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

5-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

a) Sug'urtalovchining yozma ko'rsatmalariga asosan sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelayotgan yoki kelgan zarar miqdorini kamaytirishga qaratilgan harakat choralari amalga oshirish;

b) Sug'urtalovchi yoki uning vakilidan sug'urta shartlariga oid qo'shimcha ma'lumot yoki izoh olish.

v) sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchini 30 (o'ttiz) kun oldin xabardor qilgan holda bekor qilish.

5.2. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

a) sug'urtalangan uy-joyda barcha zarur xavfsizlik talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

b) sug'urta hodisasining yuz berishi ehtimolini oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rish;

v) ushbu Ofertaning 6.1-bandida ko'rsatilgan muddat va tartibda sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida xabar berish.

5.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

a) uy-joyni sug'urtaga olinayotgan jarayonda monitoring (ko'zdan kechirish) o'tkazish, fotosuratga olish, kadastr yoki uy-joyga egalik qilish, hujjatlari yoki uy-joyning o'lchamlari ko'rsatilgan boshqa hujjatdan nusxa olish;

b) sodir bo'lgan hodisa bo'yicha Sug'urta qildiruvchiga nisbatan tergov yoki sud surishtiruvini tayinlangan bo'lsa, tergov yoki sudning yakuniy qarori chiqquniga qadar sug'urta to'vonini to'lashni to'xtatib turish;

v) agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertaning 5.2-bandida ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi aniqlansa, Sug'urtalovchi sug'urta to'vonini to'lash rad etishi yoki zararlangan uy-joyga yetgan zararni o'z imkoniyatlaridan foydalanib belgilash;

g) to'g'ridan-to'g'ri jabrlanuvchi yoki uning merosxo'rlariga sug'urta to'vonini yoki ta'minotini to'lash.

5.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) Sug'urta qildiruvchining sug'urta voqeasiga taalluqli sug'urta da'vosini ushbu Ofertaning 6-bo'limida ko'rsatilgan muddatlarda hal etish;

b) Sug'urta qildiruvchining so'rovnomasiga ko'ra sug'urta shartlariga oid qo'shimcha ma'lumot yoki izoh berish.

6-BO'LIM. SUG'URTA DA'VOLARINI KO'RIB CHIQISH

6.1. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi voqea sodir bo'lgan vaqtdan boshlab 72 soat ichida Sug'urtalovchiga og'zaki ravishda xabar berishi va 5 (besh) ish kuni ichida yozma ariza bilan murojaat etishi shart.

6.2. Sug'urtalangan uy-joy bilan sodir bo'lgan voqeani ko'rib chiqish uchun Sug'urta qildiruvchi quyidagi hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etadi:

a) voqeani ko'rib chiqish to'g'risida ariza;

b) sug'urtalangan uy-joyning kadastr yoki uy-joyga egalik qilish hujjatlari yoki uy-joyning o'lchamlari ko'rsatilgan boshqa hujjat nusxasi, agar hujjatlar voqea natijasida nobud bo'lmagan bo'lsa;

v) zararlangan uy-joyning fotosuratlari;

g) tegishli vakolatli davlat idoralaridan (gidrometeorologiya xizmati agentligi yoki seismoprognostik monitoring respublika markazi, ichki ishlar organlari, yong'in xavfsizligi xizmatlari, mahalla fuqarolar yig'ini va b.) uy-joyning zararlanishi, shikastlanishining kelib chiqish sabablarini tasdiqlovchi hujjatning asli;

d) zarar miqdorini hisoblashga vakolatli tashkilotning uy-joyga yetgan zararni aniqlash (loyiha-smeta) bo'yicha tuzgan hisoboti, xulosasi yoki boshqa hujjatining asli (agar zarar miqdori 2 million so'mdan yuqori bo'lsa). Zarar yetganligi yoki uning hajmi bo'yicha Sug'urtalovchida shubha tug'ilgan taqdirda qayta ekspertiza o'tkazish huquqiga ega.

6.3. Vakolatli tashkilot tomonidan berilgan hujjat o'sha tashkilotda o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

6.4. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini tasdiqlash maqsadida Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi, uy-joy shirkati (uyushmasi, fuqarolar yig'ini va h.k.) va xolis guvohlar ishtirokida voqea joyini ko'zdan kechirish dalolatnomasi tuzilishi mumkin.

7-BO'LIM. SUG'URTA TOVONINI TO'LAB BERISH TARTIBI

7.1. Sug'urta tovonini quyidagi tartibda to'lanadi:

a) sug'urtalangan uy-joy to'liq nobud bo'lsa, ushbu uy-joy uchun o'rnatilgan sug'urta pulidan shartsiz franshiza chegirilgan miqdorda;

b) uy-joy zararlangan, uy-joyni tiklash xarajatlaridan shartsiz franshiza chegirilgan holda sug'urta pulidan oshmagan miqdorda to'lanadi.

7.2. Tiklash xarajatlari quyidagilardan iborat:

a) ta'mirlash (tiklash) uchun materiallar va ehtiyot qismlar;

b) ta'mirlash bo'yicha ish haqi to'lovi;

v) materiallarni (ehtiyot qismlarni) ta'mirlash joyiga olib borish xarajatlari;

g) uy-joyni tiklash bo'yicha loyiha-smetani tayyorlash xarajatlari.

7.3. Sug'urta hodisasining yuzaga kelishi va zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga taqdim etilgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida Sug'urtalovchi tegishli qaror qabul qiladi va qaror qabul qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Sug'urta qildiruvchiga imzolash uchun sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani taqdim etadi.

7.4. Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi ko'rsatgan hisob raqamiga sug'urta tovonini summasini o'tkazib beradi.

7.5. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori Sug'urta qildiruvchiga u sug'urta tovonini to'lashni so'rab murojaat etgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi shart.

7.6. Agar Sug'urta qildiruvchiga yetgan zarar, zararni yetkazgan shaxs tomonidan qisman qoplansa, Sug'urtalovchi qoplanmagan zarar qismi miqdorida, ushbu Ofertaning 6.5. bandiga muvofiq sug'urta tovonini to'lab beradi.

Agar zararni yetkazilishida aybdor shaxs tomonidan zarar qoplansa, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga bunday pul mablag'lari olinganligi haqida darhol xabar berishi va ortiqcha to'langan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga qaytarishi shart.

7.7. Sug'urta tovonini to'liq yoki qisman to'langandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga asosan (subrogatsiya) to'langan sug'urta tovonni miqdorida Sug'urta qildiruvchining zarar uchun javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urta qildiruvchining yaqin qarindoshlari (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, turmush o'rtog'i, farzandlari) va sug'urtalangan uy-joyda ro'yxatdan o'tgan yoki qonuniy va muqim yashaydigan shaxslarga nisbatan ushbu bandning talablari qo'llanilmaydi. Sug'urta qildiruvchi yetgan zarar uchun javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod bo'ladi.

8-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

8.1. O'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

8.2. Ushbu Ofertadan kelib chiqadigan barcha tortishuvlar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishuvga erishilmagan taqdirda hal etiladi.